

ISLOMDA AXLOQIY QADRIYATLAR VA ULARNING HAYOTIMIZGA TA'SIRI

Abduvaxitova Zilola Abdumanonovna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Arab filologiyasi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosan Islom dinida axloqiy tarbiya va qadriyatlarning shakllanishi, dinimizning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, uning asosiy manbalari va jamiyat hayotidagi o'rni tahlil qilinadi. Qur'on va Hadis asosida shakllangan axloqiy qadriyatlar, ilm-ma'rifat, oilaviy tarbiya va ijtimoiy hayotdagi o'rni yoritilgan. Islom ta'limotining axloqiy tamoyillari insonlar o'rtasida hurmat, adolat va mehr-oqibatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Islom, axloqiy tarbiya, qadriyatlar, Qur'on, Hadis, ilm-ma'rifat, adolat, mehr-oqibat, jamiyat, oila tarbiyasi, din, fiqh, insonparvarlik, dunyoviy, diniy, iymon, insoniylik.

Kirish. Islom dini g'oyalari va qadriyatlari, unga e'tiqod qiluvchi xalqlar milliy ongning rivojlanishida bir turtki bo'lib asta-sekin ma'naviy ruhiy jihatdan jipslasha borib, yagona maslakdoshlar jamiyati vujudga kela boshladi. Zero, bu qadriyatlar va ruhiy bilimlar mohiyatini ezgulik va poklikka da'vat etuvchi g'oyalar tashkil etgan. Zardushtiylik dinining ezgulik yovuzlik ustidan pirovardida tantana qilish to'g'risidagi g'oya bilan tarbiyalanib kelgan xalqlar uchun islomdagi insonparvarlik va ma'rifatparvarlik g'oyalari bir-birini to'ldirgandi.

Diniy qadriyatlar, marosim va an'analarning shakllanishi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Ibtidoiy din shakllaridan boshlangan bu jarayon milliy va jahon dinlari shakllanib, keng yoyila boshlagan paytlarda ancha rivojlangan. Hozirgi diniy qadriyatlarning mavjudligi diniy ta'limotlarga asoslansa-da uning rivojlanishi jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy taraqqiyot bilan mustahkamlangan. Ular xalqimizning turmush tarzi va jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy ma'naviyatimizning qadimiy ildizlari, shu jumladan islomiy qadriyatlari, noyob va betakror namunalarini tadqiq etish, ularni bugungi kun talablari bilan bog'liq holda boyitib targ'ib etishning yangi bunyod etilayotgan fuqarolik jamiyati uchun ahamiyati kattadir. Istiqlol yillarida buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosini tadqiq etish, asarlarini nashr qilish, yubileylerini nishonlash mamlakatimizda odat tusiga kirib, millatimizning har tomonlama uyg'onib, kamol topishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Xususan islom falsafasi asarlarini, diniy ulamo va allomalarning merosini nashr qilish,

o'rganish, targ'ib etish xalqimizni islomiy qadriyatlardan baxramand qilishga katta yo'l ochdi.

Adabiyotlar taxlili va metodologiya. VIII-XII asrlar butun musulmon jamiyatida fan va madaniyat, ilm va tafakkur rivojlangan bir davr bo'ldi. Bu davrda diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham o'z rivojiga ega bo'ldi. Islom dini - Arabiston yarim oroli dorasidan chiqib, taraqqiy etgan jahon diniga aylandi. Islomning din sifatida shakllanib, rivojlanishi aynan shu davrlarga to'g'ri keladi. Albatta, bunga turli mintaqalardagi jarayonlar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, Movarounnahrning islom madaniyati va fanning algebra, astronomiya, falsafa, tarix, hadis, kalom va boshqa sohalariga ko'rsatgan ta'siri juda kattadir. Ayniqsa fiqh ilmi sohasida Movarounnahrning tutgan o'rnini beqiyosdir. Umuman olganda islom huquqshunosligi (fiqh) o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega. Fiqh - g'arbda Islamic Law, Muslim Law, Muhammadan Jurisprudence, Le Droit Musulman, Islamische Gesetz kabi nomlar bilan yuritiladi. Dunyoda amaldagi huquq normalaridan farqli o'laroq, fiqh o'z ichiga ibodat masalalarini ham qamrab oladi. Buni Tavrot kitobining ibodat masalalarini jamlab olgan Talmudga qiyoslash mumkin.

Fiqh - qadimdan mavjud huquqiy normalarni ibodat va muomala masalalari bilan mushtarak holda ma'lum tartibga solingan huquqiy tizimdir. Lug'atda: «al-fiqh» kalimasi - «anglamoq, tushunmoq» kabi ma'nolarni beradi. Istilohda: «al-fiqh» - «Islom huquqi» deb yuritiladi.

Fiqh zamonaviy fanlar asosida hozirgacha chuqur o'rganilmagan bo'lib, mutaxassis olimlar oldiga katta muammolarni qo'yib kelmoqda. Fiqh - odatda «furu' al-fiqh» (so'zma-so'z: «fiqh tarmoqlari») Shariatni konkret sohalarga tadbiq qilishdan va «usul al-fiqh» (so'zma-so'z: «fiqh asoslari») Shariat hukm oladigan manbalarni ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Tarixiy tadriji ko'ra «al-fiqh» - usul al fiqhdan avval paydo bo'lgan. Fiqh ilmining tadrijiy rivojini mutaxassis olimlar tomonidan bir necha davrlarga taqsim etilgan.

Insonning chin ma'nodagi insoniyligi - uning imoni, diyonati, mehr-oqibati, pokligi va halolligi, kamtarligi va boshqalar bilan o'lchanadi. Bu umumiy tarzda insoniylik tushunchasi bilan ifodalanadi. Insoniylik esa faqat imonli insonlardagina bo'ladi. Bu o'rinda hamma kishilar uchun umumiy tarzda tegishli bo'lgan masalalar ustida baholi qudrat fikr yuritamiz. Har birimiz imon tushunchasining mohiyatini to'g'ri anglab, tushunib olsak, imonni izohlovchisi bo'lgan diyonat, vijdonlilik, insof, mehr-oqibat, sahovat, adolatlilik, poklik va halollik, kamtarlik va boshqa ma'naviylik fazilatlarining ham mohiyatini bilib olamiz. Faqat imonli kishilargina poklik va halollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat, sahovat, muruvvat yo'lida bo'ladilar. Shuning uchun imon tushunchasini, uning mohiyatini keng qamrovli asosda bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. Imon arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ishonch demakdir. U inson ruhiy

olamining botiniy tomonini tashkil etadi. Imon shaxsning o'z e'tiqodiga tayangan holda boshqalarning niyati, qilmish-qidirmishiga, o'zining ishlariga, hatolariga munosabat bildirishdir. Imon hayotda to'g'ri yo'l topishning mezoni hisoblanadi. Imonli kishilar Allohdan qo'rqish, bandadan uyalish nima ekanligini chuqur idrok etganlar. Allohni bir, Payg'ambarimizni (sallallohu alayhi vasallam) uning elchisi deb bilish-imonning bosh belgisi hisoblanadi. Imonli bo'lgan kishilar butun hayotlarida, ishlarida, faoliyatlarida, uyda, ko'chada birovga, o'z oilasiga munosabatlarida hamisha to'g'ri va halol yo'l tutishga intiladilar. Muomala va munosabatlarida g'araz bo'lmaydi, ta'madan va haromdan hazar qiladilar. Barcha amallari va hatti-harakatlarini shunga bo'ysundirishga harakat qiladilar.

Hadislarda Vatanni sevish, hayoli bo'lish, kamsuxanlik ham imonlilikning ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Vatanni sevish milliy, ijtimoiy-siyosiy hodisadir.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy jamiyat va Islom qadriyatlari. Bugungi kunda axloqiy qadriyatlarning dolzarbligi ortib bormoqda. Globalizatsiya va zamonaviy madaniyatning ta'siri ostida Islomiy qadriyatlarning saqlanishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Islomiy axloq me'yorlarini amaliy hayotga tatbiq etish orqali insonlar o'rtasida birdamlik, hurmat va adolat mustahkamlanadi. Axloqiy tarbiya tamoyillari Islom dinida axloqiy tarbiya inson kamoloti va jamiyatning barqarorligi uchun asosiy ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiya tamoyillari. Qur'on, Hadis va Islom ulamolari ta'limotlarida keng yoritilgan bo'lib, insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Quyida axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari keltiriladi:

1. Halollik va rostgo'ylik Islom axloqiy tarbiyasining asosiy tamoyillaridan biri halollik va rostgo'ylikdir. Qur'onda: "Ey iymon keltirganlar! Allohdan qo'rqinglar va rostgo'y bo'linglar" (Ahzob surasi, 70-oyat) deb marhamat qilingan. Rostgo'ylik insonning obro'-e'tiborini oshiradi va jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi.

2. Adolat va tenglik Adolat har bir jamiyatning ustuni bo'lib, Islom ta'limotida muhim o'rin tutadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) aytganlar: "Sizlarning eng yaxshilaringiz adolatli bo'lganlaringizdir". Adolat shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

3. Mehr-oqibat va rahm-shafqat Mehr-oqibat va rahm-shafqat Islomning asosiy qadriyatlaridan biridir. Payg'ambar Muhammad (s.a.v): "Kim yerdagilarga rahm-shafqat qilsa, unga osmondagilar rahm qiladi" deb marhamat qilganlar. Insonlar o'rtasida mehr-muruvvatni oshirish jamiyatning ahil va barqaror bo'lishiga hissa qo'shadi.

4. Sabr va shukr Islom ta'limotida sabr va shukr eng muhim axloqiy fazilatlar sifatida qaraladi. Qur'onda: "Albatta, sabr qiluvchilar mukofotlarini to'la olurlar" (Zumar surasi, 10-oyat) deb ta'kidlangan. Sabr qiyinchiliklarga bardosh berish va hayot sinovlariga qat'iy turishdir. Shukr esa insonning Alloh bergan ne'matlarga minnatdor bo'lishini ifodalaydi.

5. Ota-onaga hurmat va farzand tarbiyasi Islomda ota-onaga hurmat qilish farz deb belgilangan. Qur'onda: "Ota-onangizga yaxshilik qiling" (Isro surasi, 23-oyat) deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi esa ota-onaning eng muhim vazifalaridan biridir. Islom axloqiy tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati katta bo'lib, farzandlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirish muhim hisoblanadi.

6. Ilm olish va ma'rifat Ilm olish Islom axloqiy tarbiyasining ajralmas qismidir. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) aytganlar: "Ilm izlash har bir musulmon erkak va ayolga farzdir". Ilm orqali inson dunyo va oxirat haqida bilimga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

7. Yaxshilik qilish va saxovat Islom dini insonlarni yaxshilik qilishga da'vat etadi. Qur'onda: "Kim bir yaxshilik qilsa, unga o'n barobar mukofot beriladi" (An'om surasi, 160-oyat) deb aytilgan. Saxovat va xayriya ishlari orqali jamiyatda birdamlik va hamjihatlik mustahkamlanadi.

8. Jamiyatga xizmat qilish va fidoyilik Islom axloqiy tarbiyasida jamiyatga xizmat qilish va fidoyilik muhim o'rin tutadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v): "Odamlarning eng yaxshisi boshqalarga foydali bo'lganidir" deb aytganlar. Bu tamoyil insonlarni jamiyat ravnaqi uchun fidokorlik qilishga undaydi.

Zamonaviy jamiyat va Islom qadriyatlari. Zamonaviy jamiyat murakkab tuzilishga ega bo'lib, u iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va axloqiy jihatdan doimiy ravishda o'zgarib boradi. Bunday o'zgarishlar jarayonida qadriyatlarning o'zgarishi yoki ularga nisbatan yangi yondashuvlar shakllanishi tabiiydir. Biroq Islom qadriyatlari, o'zining mangu va universal tamoyillariga ega bo'lib, har qanday jamiyat uchun ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Islom qadriyatlari va globalizatsiya jarayoni butun dunyo madaniyatlari va qadriyatlarini bir-biriga yaqinlashtirib, axloqiy me'yorlarni ham o'zgartirib yuborishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, Islom qadriyatlari globalizatsiya ta'siriga qaramay, o'zining mohiyatini saqlab qolish muhim hisoblanadi. Axloqiy me'yorlar – halollik, adolat, mehr-oqibat, saxovat, ota-onaga hurmat kabi qadriyatlar har qanday sharoitda ham inson hayoti uchun muhim sanaladi. Zamonaviy jamiyatda axloqiy muammolar va Islom qadriyatlari, bugungi kunda jamiyat axloqiy inqiroz bilan yuzlashmoqda. Turli axloqiy buzilishlar – yolg'on, poraxo'rlik, zo'ravonlik, oilaviy ajrimlar, ijtimoiy tengsizlik kabi muammolar tobora kuchayib bormoqda. Islom qadriyatlari esa bu kabi muammolarga qarshi samarali yechim bo'lib xizmat qiladi.

Diniy imon bilan birga inson tajribasi, bilimi tufayli yuzaga kelgan dunyoviy imon ham bor. Dunyoviy imon mazmunini olam va odam haqidagi so'nggi ikki yarim ming yil mobaynida kashf etilgan ilmiy-falsafiy bilimlar, mehnat ahlining to'plagan hayot tajribasi, ijtimoiy xotirasi, turli-tuman udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va ular zamiridagi bilimlar tashkil etadi. Dunyoviy imonning o'zagi odamiylikdan iborat bo'lib, uning tarkibiga kiradigan unsurlar, qirralar, jihatlar g'oyat turli-tumandir.

Odamiylik deganda xalqimiz uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tib sayqal topib kelayotgan va faqatgina ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni tushunsak bo'ladi. Odamiylik g'oyasi xalqimizning butun turmush tarziga, urf-odatlariga hamda an'analariga, uning mislsiz boy og'zaki va yozma ijodiga, mumtoz adabiyotimiz va san'atimizga singib ketgan bo'lib, hozircha chuqur o'rganilib umumlashtirilgani yo'q. Dunyoviy imon odamlarni to'g'ri yo'ldan borishga qaratilgan ma'naviy qadriyatlar tizimidir. Imonli bo'lishning mohiyatini hayo, andisha, shirin so'zlilik, halollik va adolatlilik, or-nomuslilik, vijdonlilik, vafodorlik, mehnatsevarlik, sahovatlilik, mehr-muhabbatlilik, xayr ehsonlilik kabi ahloqiy qadriyatlardan iborat ekanini ko'ramiz. Demak, imon komil insonning yetuk ma'naviy fazilatlariga majmuidir. Imonsizlik esa vijdonsizlik, e'tiqodsizlik, tuban yo'llarga yurish, ahloq, odob, insonparvarlik qoida va talablariga rioya qilmaslikdir.

Yuqorida aytganimizdek, dunyoviy imonda ko'proq inson ahloqidagi odamiylikka urg'u beriladi. Kundalik hayotda imon so'zi keng qo'llaniladi. Bunda dunyoviy imon ma'nosi ko'zda tutiladi. Chunonchi xalqimizda ayrim kishilarning o'ta ahloqsizlik hatti-harakatiga nisbatan "imonsiz" degan haqoratomuz ibora ishlatiladi. Bu haqorat zahirida Allohga ishonch-e'tiqodi yo'q, xudodan, dindan qaytgan, xudosiz ma'nolaridan tashqari vijdonsiz, vijdonfurush, yaramas, razil, diyonatsiz kabi dunyoviy imon mazmuni ham aks etgan. Bu shunday og'ir diniy va dunyoviy haqoratki, o'tmishda shu haqoratga asossiz duchor bo'lgan oriyatli kishilar haqorat etuvchi kimsa ustidan qoziga shikoyat qilishgacha borgan. Imoni yo'q kishilar esa mahalla-ko'yda, yaqin kishilari orasida la'natlangan hisoblangan, unday kishilar bilan muomala qilinmagan, oxir-oqibatda oriyati dosh berolmasa ko'chib ketishgacha borilgan. Demak, imon inson hayoti va faoliyatiga asos bo'ladigan diniy va dunyoviy ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar tizimidir.

Imonni faqatgina tarixiy qadriyatgina emas, balki hozirgi kunimizda ham inson kamolotiga bevosita daxldor bo'lgan ma'naviyat deb qarashimiz lozim. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga hissa qo'shayotgan fuqarolarning imoni mustaqillik ishiga fidoyilik, millatparvarlik, vatanparvarlik, baynalminalchilik, porloq kelajakka ishonch, davlatimiz ramzlariga sadoqat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini o'zida tarbiyalash, ishbilarmonlik, tadbirkorlik singari yangi ahloqiy qadriyatlarni o'zida namoyon etishidan iborat.

Demak, insoniylikning muhim shartlari – diyonatlilik, mehr-shafqatlilik, poklik va halollilikni imon tushunchasi o'z ichiga oladi. Chunki, faqat imon sohibi bo'lgan insondagina diyonat, mehr-shafqat, poklik va halollik bo'ladi. Imonsiz kishilardan uni kutish mumkin emas. Ana shu va boshqa fazilatlar bo'lmagani uchun ham ba'zi odamlarga nisbatan imonsiz so'zini ishlatamiz.

Xulosa. Islom dini insonni faqat ibodatga emas, balki go'zal axloqqa, halollikka, poklikka, adolat va mehrga chorlaydi. Axloqiy qadriyatlar – bu insoniyatni yovuzlik,

buzuqlik, zo‘ravonlikdan asraydigan eng kuchli qalqondir. Har bir musulmon ana shu qadriyatlarga amal qilsa, hayoti tinch, jamiyati esa farovon bo‘ladi. Demak, Islomda axloq – bu hayotning eng yuksak mezon, komillik sari eltuvchi yo‘ldir. Din kirib kelishi bilan qadriyatlar tizimiga ta‘sir qiladi va yangi qadriyatlar yangi an‘analar shakllanadi. Qadriyatlar tizimida o‘zaro yangi insoniylik g‘oyalar tolerantlik g‘oyalari shakllanadi.

Islom dinida axloqiy tarbiya va qadriyatlar falsafasi Qur‘on va Hadis asosida shakllangan bo‘lib, axloqiy, ijtimoiy va ilmiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bu qadriyatlar nafaqat diniy hayotning, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim qismi hisoblanadi. Islomiy qadriyatlarning hayotimizda tatbiq etilishi insonlarning o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va adolat bilan yashashiga xizmat qiladi. Shu bois, Islom qadriyatlarini chuqur o‘rganish va ularga rioya qilish har bir musulmonning burchidir.

REFERENCES

1. Qur‘oni Karim va uning tafsirlari.
2. Hadis to‘plamlari: Imom Buxoriy, Imom Muslim. 3. Al-G‘azoliy. "Ihyo Ulum ad-Din".
3. Yusuf al-Qaradoviy. "Islom axloqi"
4. Sh. Sirojiddinov. "Islom tarixi va madaniyati".
5. Begmuradovich, S. A. (2025). Einsatz von informations-technologie im fremdsprachen unterrichtet. Sovremennoye obrazovaniye issledovaniy 1(3), 97-102.
6. Begmuradovich, S. A. (2025). The usage of modern educational technologies in teaching a foreign language in higher educational institutions. Ta‘lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali 1(2), 180-184.
7. Begmuradovich, S. A. (2023). Integration of educational process forms. Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar| journal of pedagogy, psychology and social research 2(2), 20-23.
8. Suyarov, A. B. (2025). Texnologii organizatsii distansion-nogo obucheniya. Zamin ilmiy tadqiqotlar jurnali 1(2), 9-15.
9. Suyarov, A. B. (2025). Sovremenniy metod v metodike prepodavaniya inostrannix yazikov. Yangi o‘zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali 2(2), 217-225 Volume 2 Issue 7 [March 2025].
10. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi materiallari.